

faoliyati aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yondashuv soliq qarzdorligini ma'muriy usullar bilan emas, balki oldini olish va tushuntirish orqali kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, soliq qarzdorligini kamaytirishda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish budjet-soliq tizimini oqilona boshqarishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u davlat budjeti tushumlarining barqarorligini ta'minlash, soliq ma'muriyati samaradorligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni soliq siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 16-martda Soliq qo'mitasida o'tkazgan yig'ilishdagi nutqi. <https://president.uz/uz>.

2. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). *The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. Journal of Economic Literature*, 52(1), 5–44.

3. Bird, R. M. (2015). *Improving tax administration in developing countries. Journal of Tax Administration*, 1(1), 23–45.

4. Alm, J. (2019). *What motivates tax compliance? Journal of Economic Surveys*, 33(2), 353–388.

5. OECD. (2020). *OECD/INFE international survey of adult financial literacy competencies*. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org/en/networks/infe.html>.

KICHIK SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISHNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARINI SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH

Amirov Zubaydulla Toir o'g'li

*Toshkent arxitektura qurilish universiteti "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk"
kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annatsiya: Kichik sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlari samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Tadqiqotda fond qaytimi, investitsiya mahsuldorligi, mehnat unumdorligi, kapital bilan ta'minlanganlik, tannarx nisbati va resurs sig'imi tahlil qilinadi. 2020-2024 yillar ma'lumotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi asosan mavjud resurslardan foydalanish samaradorligining oshishi hisobiga ta'minlanayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kichik sanoat korxonalari, ishlab chiqarishni kengaytirish, samaradorlik ko'rsatkichlari, fond qaytimi, mehnat unumdorligi, resurs sig'imi.

Hozirgi globallashtirish sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish sohasining diversifikatsiyasi va yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarning kengayishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu jarayonda kichik sanoat korxonalarining o'rni alohida ahamiyat kasb etib, ular iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, bandlikni oshirish hamda hududlar rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda texnologik yangilanishlar, raqamlashtirish jarayonlari va ishlab chiqarishni moslashuvchan tashkil etish imkoniyatlari kichik biznes uchun sanoat ishlab chiqarishiga kirib borish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Biroq ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi har doim ham yangi investitsiyalar yoki qo'shimcha resurslar jalb etilishi hisobiga emas, balki mavjud ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligining oshishi orqali ta'minlanishi mumkin. Shu bois kichik sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish masalalari asosan modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsion rivojlanish jarayonlari bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. Xususan, I. Xotamov va G. Madraximova sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmlarini oshirishning nazariy asoslarini ishlab chiqarish jarayonlarini tarkibiy o'zgartirish va texnologik yangilash orqali izohlaydi³⁰. Ularning fikricha, modernizatsiya korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bilan birga ishlab chiqarish masshtabini kengaytirish imkonini yaratadi.

E.A. Matsneva va E.R. Magaril tadqiqotlarida ekstensiv rivojlanish yo'llari deyarli tugaganligi ta'kidlanib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish asosan intensiv omillar - ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilishi asoslab berilgan³¹. Kopylova L.A. va Berdimuratov D.U. kichik biznesda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi barqaror o'sib borayotganini ko'rsatib, klasterlashuv va kooperatsiya mexanizmlarining muhimligini ta'kidlaydi³².

Mahalliy tadqiqotlarda esa X. Karimov ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali sanoat korxonalarini rivojlantirish istiqbollari ilmiy asoslagan. M. Xusanova va Sh. Donayevlarning tadqiqotlarida esa xarajatlarni qisqartirish, resurslardan tejamkor foydalanish va barqaror amaliyotlar modelini joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.³³ Mazkur ilmiy qarashlar

³⁰ Xotamov I., Madraximova G. "Real sektor korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish". o'quv qo'llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019- yil. - 201 bet.

³¹ Копылова Л.А., Бердимуратов Д.У. Факторы, влияющие на развитие малого бизнеса в сфере промышленности // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар : илмий электрон журнал. 2012. № 4. - URL:

³² X.M.Karimov. Sanoat tarmoqlarida innovatsion infratuzilmalarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (to'qimachilik sanoati misolida) : iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. - Toshkent : Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2026.- B-22.

³³ M.M.Xusanova. Sanoat korxonalarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent : Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2025. - B-20.

kichik sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash zaruratini tasdiqlaydi.

Kichik sanoat korxonalarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlari ishlab chiqarish natijalarini belgilovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi asosida baholanadi. Ushbu tizim fond qaytimi, investitsiya mahsuldorligi, mehnat unumdorligi, kapital bilan ta'minlanganlik, mahsulot tannarxining ishlab chiqarish hajmiga nisbati hamda resurs sig'imi kabi ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Mazkur ko'rsatkichlar ishlab chiqarish jarayonida mavjud kapital, mehnat va investitsiya resurslaridan foydalanish darajasini miqdoriy jihatdan aniqlash imkonini beradi. Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmining o'sishi har doim ham asosiy vositalar qiymati va investitsiyalar hajmining mutanosib oshishi bilan izohlanmaydi. Fond qaytimi va investitsiya mahsuldorligi ko'rsatkichlarining dinamikasi ayrim davrlarda ishlab chiqarish hajmining kengayishi mavjud asosiy fondlar va investitsiyalardan foydalanish samaradorligining oshishi hisobiga ta'minlanayotganini ko'rsatadi. Bu esa ishlab chiqarishni kengaytirishda intensiv omillarning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Mehnat unumdorligi va kapital bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlarini o'zaro nisbatda tahlil qilish ishlab chiqarish jarayonida texnik jihozlanganlik darajasi hamda ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini baholash imkonini beradi. Agar kapital bilan ta'minlanganlikning oshishi mehnat unumdorligining o'sishi bilan birga kechsa, ishlab chiqarish hajmining kengayishi asosan samaradorlik omillari hisobiga amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Mahsulot tannarxining ishlab chiqarish hajmiga nisbati va resurs sig'imi ko'rsatkichlari esa ishlab chiqarish jarayonidagi xarajatlar yuklamasi va resurslardan foydalanish intensivligini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkichlarning pasayishi ichki iqtisodiy zaxiralardan foydalanish hisobiga ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini bildiradi.

Shunday qilib, fond qaytimi, investitsiya mahsuldorligi, mehnat unumdorligi, kapital bilan ta'minlanganlik, tannarx nisbati va resurs sig'imi ko'rsatkichlarining kompleks tahlili kichik sanoat korxonalarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni qo'shimcha investitsiyalarni jalb etmasdan, balki mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali kengaytirish mumkinligini miqdoriy jihatdan asoslash imkonini beradi. Bunda ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini nisbiy ko'rsatkichlar va taqqoslama-dinamik tahlil usullari asosida baholash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur yondashuv asosida kichik biznesda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini miqdoriy baholash uchun ishlab chiqarish jarayonini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi shakllantirildi. U ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, asosiy vositalar qiymati, sanoatga kiritilgan investitsiyalar, band bo'lganlar soni hamda mahsulot tannarxi asosida hisoblangan fond qaytimi, investitsiya mahsuldorligi, mehnat

unumdorligi, kapital bilan ta'minlanganlik, tannarx nisbati va resurs sig'imi ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi

1-jadval

Kichik sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini baholovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar³⁴

№	Ko'rsatgich nomi	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	Fond qaytimi	1.20	1.35	1.41	1.40	1.61
2	Investitsiya mahsuldorligi	2.03	2.58	2.33	1.61	1.69
3	Mehnat unumdorligi	6.35	8.58	11.98	12.95	18.71
4	Kapital bilan ta'minlanganlik	5.30	6.36	8.48	9.26	11.63
5	Tannarx nisbati	0.83	0.89	1.11	0.96	0.69
6	Resurs sig'imi	1.33	1.13	1.14	1.34	1.21

Jadval ma'lumotlari 2020-2024 yillarda kichik sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni kengaytirish jarayoni asosan samaradorlik omillari hisobiga amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Xususan, fond qaytimi ko'rsatkichi 1,20 dan 1,61 gacha oshib, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi barqaror yaxshilanayotganini anglatadi. Bu holat ishlab chiqarish hajmining asosiy vositalar qiymatiga nisbatan tezroq o'sayotganini ko'rsatadi.

Investitsiya mahsuldorligi 2021-yilda eng yuqori darajaga yetgan bo'lsa-da, keyingi yillarda nisbatan pasaygan. Bu investitsiyalar hajmining o'sishi ularning darhol ishlab chiqarish natijalariga to'liq aks etmaganini, ya'ni investitsiya samaradorligida vaqtinchalik beqarorlik mavjudligini bildiradi.

Mehnat unumdorligi butun davr davomida keskin o'sib, 6,35 dan 18,71 gacha yetgan. Bu ishlab chiqarish hajmining kengayishi asosan ishchi kuchi sonining ko'payishi hisobiga emas, balki mehnatdan foydalanish samaradorligining oshishi hisobiga ta'minlanayotganini ko'rsatadi. Kapital bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichining barqaror o'sishi kichik sanoat korxonalarida texnik jihozlanganlik darajasi yaxshilanayotganini tasdiqlaydi.

Tannarx nisbati 2022-yilda nisbatan yuqori darajaga chiqqan bo'lsa-da, 2024 yilda keskin pasaygan. Bu ishlab chiqarish xarajatlari bosimining kamayganini va ichki iqtisodiy zaxiralardan samaraliroq foydalanilayotganini anglatadi. Resurs sig'imi ko'rsatkichining pasayishi esa ishlab chiqarish hajmining resurslar yig'indisiga nisbatan samaraliroq shakllanayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, jadvaldagi natijalar kichik sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlari asosan mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ta'minlanayotganini va intensiv rivojlanish omillari ustuvor ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tahlil natijalari kichik sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlari, avvalo, mavjud resurslardan foydalanish samaradorligiga bog'liq ekanini ko'rsatdi. Shu bois ishlab chiqarish hajmini

³⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

oshirishda ishchi kuchi sonini ko'paytirish yoki katta miqdordagi yangi investitsiyalarni jalb etishdan ko'ra, mehnat unumdorligini oshirish va asosiy vositalardan foydalanish darajasini yaxshilashga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

Kapital bilan ta'minlanganlik darajasining o'sishi texnik jihozlanganlik yaxshilanayotganini ko'rsatsa-da, ushbu jarayon har doim ham mehnat unumdorligining mos sur'atlarda o'sishi bilan uyg'unlashmagan. Shu sababli mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish, texnologik jihozlarni yuklama bo'yicha optimallashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini qayta tashkil etish orqali foydalanilmagan ichki imkoniyatlarni safarbar etish zarur.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va resurs sig'imini pasaytirish maqsadida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, xomashyo va materiallardan foydalanishni optimallashtirish hamda barqaror amaliyotlar modelini qo'llash tavsiya etiladi. Investitsiyalarni esa asosan ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi yo'nalishlarga-raqamlashtirish, avtomatlashtirish va mehnat unumdorligini ko'tarishga xizmat qiluvchi texnologik yechimlarga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi kichik sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmlarini qo'shimcha resurslar jalb etmasdan, ichki iqtisodiy zaxiralardan samarali foydalanish orqali barqaror kengaytirish imkonini beradi hamda ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Xotamov I., Madraximova G. "Real sektor korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish". o'quv qo'llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019- yil. - 201 bet.*

2. *Копылова Л.А., Бердимуратов Д.У. Факторы, влияющие на развитие малого бизнеса в сфере промышленности // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар : илмий электрон журнал. 2012. № 4. - URL:*

3. *X.M.Karimov. Sanoat tarmoqlarida innovatsion infratuzilmalarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (to'qimachilik sanoati misolida) : iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref. - Toshkent : Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2026.- B-22.*

4. *M.M.Xusanova. Sanoat korxonalarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent : Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2025. - B-20.*

5. *Sh.B. Donayev. Sanoat korxonalarida xarajatlarni qisqartirish asosida samaradorlikni oshirish ("G'alla Alteg" AJ misolida) : iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent : Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, 2024. - B-18.*

6. *I Karimov- Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2025. Qurilish korxonalarida investisiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari*

FEATURES OF RESULT-ORIENTED BUDGETING

N.I.Primova

Associate Professor of the Department "Finance and financial Technologies" of TSUE

Abstract: *The article examines the features of results-oriented budgeting, which is one of the current directions of reforming the budget process in the Republic of Uzbekistan. The study analyzes the theoretical foundations of ROB, international experience, the socio-economic significance of its implementation in the conditions of Uzbekistan, as well as emerging problems and ways to solve them. It has been established that the specifics of implementing the ROB system in Uzbekistan are related to factors such as medium-term planning, administrative reforms, reference infrastructure, and personnel training.*

Keywords: *budgeting, budget processes, budget planning, expenditure method, result-oriented budgeting, resources, benefits, budget reform, financial management, strategic planning, efficiency, state policy.*

In the context of economic development and modernization of public administration systems, result-oriented budgeting (ROB) occupies a stable place as one of the main mechanisms of modern financial management. Today, many countries, including Uzbekistan, are transitioning to this budgeting model in order to increase economic efficiency and improve the quality of public services. Result-oriented budgeting is a system of budgeting aimed not at the amount of funds allocated, but at the specific results and goals of the implemented state policy and programs.

In the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 11, 2023 No. UP-158 "On the Strategy "Uzbekistan – 2030", the 46th goal is defined as "Ensuring fiscal stability and effective management of state obligations". To achieve this goal, one of the 5 performance indicators is planned to fully transition to the practice of "Result-Oriented Budgeting" by 2030³⁵.

Also, one of the main goals of the Strategy for Improving the Public Finance Management System of the Republic of Uzbekistan is the development of the medium-term budget framework and the introduction of a new "result-oriented

³⁵ Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 11, 2023 No. UP-158 "On the Strategy "Uzbekistan – 2030" // National Database of Legislation, 12.09.2023, No. 06/23/158/0694.